Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

FARG'ONA SHAHRINING MADANIY MEROSI VA TURIZM SALOHIYATI

Nargiza Abduqayumovna Akramova*
Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Muzeyshunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi 2-bosqich talabasi
✉ nargizaabduqayumovna7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Farg'ona shahrining tarixiy-madaniy merosi, me'moriy obyektlari, muzeylari, madaniyat maskanlari hamda turizm salohiyati tahlil qilingan. Farg'ona shahri nafaqat Farg'ona vodiysining yirik iqtisodiy va ma'muriy markazi, balki boy tarixiy-madaniy an'analarga ega bo'lgan istiqbolli turistik hududlardan biri hisoblanadi. Maqolada tarixiy obyektlarni targ'ib qilish, turistik marshrutlarni shakllantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda Farg'ona shahrining o'ziga xos madaniy brendini yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar

Farg'ona shahri, madaniy meros, turizm, muzey, tarixiy obyekt, me'moriy yodgorlik, hunarmandchilik, turistik marshrut, madaniy brend, raqamli turizm.

DOI: 10.5281/zenodo.21743632

Kirish

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyoti va madaniy almashinuv jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Ayniqsa, madaniy turizm tarixiy meros, milliy qadriyatlar, an'analar va san'at namunalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy turizm tarixiy obidalar, muzeylar, me'moriy yodgorliklar va xalq hunarmandchiligi orqali sayyohlarga hududning o'ziga xos madaniy qiyofasini namoyish etadi [1]. Bu esa o'z navbatida hudud uchun iqtisodiy rivojlanish yo'lida samarali yo'l desak mubolaga bo'lmaydi. Turizm sohasida bugun eng ko'p tarixiy va madaniy obektlarga sayohatlarga borish istagi oshganini ko'rish mumkin.

Madaniy meros obyektlaridan turizm maqsadlarida foydalanish bugungi kunda xalqaro tajribada ham keng qo'llanilayotgan yo'nalishlardan biridir. Tarixiy obyektlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish hududlarning turistik jozibadorligini oshirish bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston o'zining qadimiy shaharlari, boy tarixiy merosi va xalq amaliy san'ati bilan jahon turizm xaritasida muhim o'rin egallaydi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning xalqaro miqyosda tan olinishi mamlakatning turistik imkoniyatlarini oshirgan. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi ham o'zining qadimiy madaniyati, hunarmandchilik an'analari va betakror tabiiy muhiti bilan katta turistik salohiyatga ega hudud hisoblanadi.

Farg'ona shahri vodiyning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biridir. Shahar 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilgach, yangi tashkil etilgan Farg'ona viloyatining ma'muriy markazi sifatida bunyod etilgan. Dastlab Skobelev nomi bilan atalgan shahar keyinchalik tarixiy nomi — Farg'ona nomini oldi.

Muzeylar madaniy merosni saqlash, ilmiy o'rganish va jamiyatga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy muzeylar nafaqat tarixiy buyumlarni saqlovchi maskan, balki ilmiy-ma'rifiy va turistik markaz sifatida ham faoliyat yuritadi. Xalqaro Muzeylar Kengashi (ICOM) muzeylarni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi,

madaniy merosni saqlovchi va keng jamoatchilik uchun ochiq bo‘lgan muassasa sifatida belgilaydi [2].

O‘zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Madaniy meros obyektlarini saqlash, ilmiy o‘rganish va turizm rivojiga jalb etish tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi [3]. Shuningdek, turizm sohasining rivojlanishi, hududlarning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yangi turistik yo‘nalishlarni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni asosida tartibga solinadi [4].

Farg‘ona shahrining tarixiy shakllanishi, madaniy obyektlari va muzeylari hududning turistik imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardan biridir. Shu sababli mazkur maqolada Farg‘ona shahrining madaniy merosi va turizm salohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Farg‘ona shahri XIX asrning ikkinchi yarmida yangi ma’muriy markaz sifatida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishida Rossiya imperiyasi davridagi shaharsozlik tamoyillari muhim rol o‘ynagan. Shahar dastlab harbiy-ma’muriy markaz sifatida barpo etilgan bo‘lsa-da, keyinchalik Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Uning keng ko‘chalari, yashil hududlari, xiyobonlari va tarixiy binolari shaharning o‘ziga xos qiyofasini shakllantirgan.

Farg‘ona shahrining madaniy merosi tarkibida tarixiy binolar, muzeylar, teatrlar, san’at maskanlari va xalq an’analari muhim o‘rin egallaydi. Madaniy meros obyektlarini turizm jarayoniga jalb etish hududning tarixiy xotirasini saqlash bilan birga, uning iqtisodiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Madaniy merosni boshqarish bo‘yicha xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy obyektlardan samarali foydalanish uchun ularni zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Farg‘ona shahridagi eng muhim madaniy maskanlardan biri — Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyidir. Mazkur muzey hudud tarixining qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo‘lgan jarayonlarini aks ettiruvchi noyob eksponatlarni o‘zida jamlagan. Muzey fondlarida arxeologik topilmalar, etnografik buyumlar, milliy hunarmandchilik namunalari, tarixiy hujjatlar va san’at asarlari saqlanadi. Muzey nafaqat ilmiy-tadqiqot markazi, balki mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun muhim turistik obyekt vazifasini ham bajaradi [5]. Bundan tashqari, muzeylar tarix ko‘zgusi bo‘lib, o‘tmish haqidagi jonli kitobdir. Uni ko‘z bilan ko‘rish, anglash va o‘tgan zamon ruhini his etish mumkin bo‘lgan ma’rifat va ziyo maskanidir.

Zamonaviy muzey faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, virtual ko‘rgazmalar tashkil etish, elektron kataloglar yaratish va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bunday yondashuv tashrif buyuruvchilar uchun qulaylik yaratib, muzeylarning turistik jozibadorligini oshiradiga xizmat qiladi.

Farg‘ona shahrining madaniy hayotida teatr va san’at maskanlari ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri hududning asosiy san’at markazlaridan biri hisoblanadi. Teatrda namoyish etilayotgan milliy va zamonaviy sahna asarlari orqali o‘zbek xalqining san’ati, tarixi va ma’naviy qadriyatlari targ‘ib qilinadi. Teatr tomoshalari madaniy turizmning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida sayyohlarga milliy madaniyat bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Shuningdek, shahar hududida joylashgan masjidlar, ziyorat maskanlari va tarixiy qadamjolar ham madaniy turizm uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu obyektlar diniy ahamiyat bilan bir qatorda, me’moriy va tarixiy qiymati bilan ham ajralib turadi. Ziyorat maskanlarini turistik yo‘nalishlarga kiritish orqali ma’naviy va madaniy turizm imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Barchaga ma’lumki, Farg‘ona shahri o‘zining yashil hududlari va istirohat maskanlari bilan ham ajralib turadi. Shahardagi Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, Ekopark hududlari, Islom Karimov nomidagi san’at saroyi, xiyobonlar va sayr maskanlari aholi va mehmonlar uchun dam olish imkoniyatlarini yaratadi. Rekreatsion hududlarning mavjudligi shaharning umumiy turistik jozibadorligini oshiruvchi omillardan biridir. Asosiysi esa Farg‘ona vodiysi qadimdan hunarmandchilik markazi sifatida mashhur bo‘lib kelgan. Bu uning ustunligi va turizm uchun juda qulay bo‘lgan jihatlardan biridir. Ayniqsa, Marg‘ilon atlas-adras to‘qimachiligi, Rishton kulolchilik maktabi va Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi an’analari hududning madaniy brendini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Farg‘ona shahrining ushbu markazlarga yaqin joylashuvi turistik marshrutlarni tashkil etishda katta imkoniyat yaratadi. Masalan, **Farg‘ona – Marg‘ilon – Rishton – Qo‘qon** yo‘nalishi yagona madaniy-turistik

marshrut sifatida rivojlantirilishi mumkin. Ushbu yo‘nalish orqali sayyohlar tarixiy obidalar, muzeylar, hunarmandchilik ustaxonalari va milliy san’at namunalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Farg‘ona shahrining turizm salohiyatini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, tarixiy va madaniy obyektlarni keng targ‘ib qilish zarur. Buning uchun obyektlar haqida ko‘p tilli axborot materiallari, kataloglar va elektron ma’lumot bazalarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, shaharning mavjud turistik obyektlarini yagona tizimga birlashtiruvchi marshrutlarni ishlab chiqish kerak. Muzey, teatr, tarixiy maskanlar va hunarmandchilik markazlarini o‘z ichiga olgan kompleks yo‘nalishlar sayyohlar uchun yanada qiziqarli bo‘ladi.

Uchinchidan, raqamli turizm imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Virtual ekskursiyalar, QR-kodli ma’lumot tizimlari va elektron gid xizmatlari zamonaviy sayyohlarning ehtiyojlariga javob beradi.

To‘rtinchidan, Farg‘ona shahrining o‘ziga xos madaniy brendini shakllantirish lozim. Bunda shaharning tarixi, hunarmandchiligi, san’ati va tabiiy imkoniyatlari asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Farg‘ona shahri boy tarixiy-madaniy merosi, muzeylari, san’at maskanlari, yashil hududlari va hududiy an’analari bilan katta turistik salohiyatga ega. Shaharda mavjud madaniy obyektlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs hisoblanadi.

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi, teatrlar, madaniyat maskanlari hamda hududiy hunarmandchilik an’analari shaharning madaniy brendini shakllantiruvchi asosiy omillardandir. Muzeylar va madaniy obyektlarni turizm tizimiga samarali integratsiya qilish orqali hududning xalqaro turistik jozibadorligini oshirish mumkin.

Kelajakda Farg‘ona shahrida tarixiy obyektlarni raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, xalqaro targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va turistik marshrutlarni takomillashtirish orqali uni Farg‘ona vodiysining muhim madaniy turizm markazlaridan biriga aylantirish imkoniyati mavjud.

Madaniy merosni asrash va undan samarali foydalanish nafaqat turizm rivoji, balki milliy o‘zlikni mustahkamlash va tarixiy xotirani kelajak avlodlarga yetkazish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Timothy D. J. *Cultural Heritage and Tourism: An Introduction*. Bristol: Channel View Publications, 2011.
2. International Council of Museums (ICOM). *Museum Definition*. Paris: ICOM, 2022. https://icom.museum/
3. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi materiallari.